SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1161
Adashev Azimjon Urinboyevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1165
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA BOSHQARUV HISOBİ AXBOROTINING AHAMIYATI	1170
Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA ULARNING TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDAGI AHAMIYATI.....	1177
Ismoilova Feruza Kubaymurodovna	
EKOMARKETING STRATEGIYALARI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH	1182
Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li	
ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC SECURITY IN THE KHOREZM REGION: WASTE RECYCLING AND CIRCULAR ECONOMY	1186
Madraximova Shohista Bahrom qizi	
KICHIK BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1191
Mavkulov Ravshan Nematjonovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLOM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH.....	1195
Sultonov Baxtiyor Baxodirovich	
MINTAQAVIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1201
Duschanov Alisher Sherzod o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI	1206
Opaev Bysen Aymanovich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH.....	1212
Yuldashev Fozil Turapovich	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJIRIBASI.....	1218
M.M.Muminova	
ИНТЕГРАЦИОННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ОПЕРАТОРА И ПРЕДПРИЯТИЙ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1223
Худаярова Мехрангиз Мурадовна	
TURIZMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN XIZMATLAR KONSEPSIYASI VA TAJRIBA TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....	1230
Raxmatov Aziz Tolipovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1235
Smaylova Zarafshan	
XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1239
Abdunazarov Dilshoda Akromovna	



METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA NATIJALARI	1244
Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich	
HUDUDIIY IQTISODIY O'SISH OMILLARINING EKONOMETRIK TAHLILI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA	1248
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
INDUSTRIAL RIVOJLANISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK OQIBATLARI	1258
Ataniyazova M.B.	
OLIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI	1263
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ЭЛЕМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1269
Махмудходжаева Луиза Сайфуллоевна	
IQTISODIYOTDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI	1274
Risqibekova Nozimaxon	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES	1280
Farrukh Mamadiyrov Shukhratovich	
MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI	1284
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
MAJOR INFLATIONARY FACTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND ANTI-INFLATION POLICIES	1290
Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	1296
Бекова Азиза Алимовна	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1301
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOIIY ROLI	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA)	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI	1353
Abduvoxidova N.G'., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIIY MECHANIZMLARI	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI	1365
Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich	
O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1372
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	
INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA TAMOYILLARI	1379
Gafurov Ma'ruf Xakimovich	
KREDIT RISKI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	1383
Karimova Shohida Zaylobiddinovna	
SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARINING IQTISODIY MODERNIZATSIYASI: ASOSIY OMILLAR VA TENDENSIYALAR.....	1389
Qosimova Nodira Saidovna	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL AGROTURIZM KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH	1395
Umurov J.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	1403
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1409
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
FERMERLAR KOOPERATSIYASI VA XALQARO BOZORLARGA KIRISH: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTIDAN XULQ-ATVOR, DEMOGRAFIK VA INSTITUTSIONAL NUQTAI NAZARLAR.....	1415
Tursunqulov G'olib Shavkat o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNI KLASSTER ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	1422
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.	
КОРПОРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В АВТОМОБИЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА И СОБЛЮДЕНИЯ РЕГУЛЯТОРНЫХ ТРЕБОВАНИЙ.....	1427
Шамсуддинов Шухрат Нематович	
ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	1431
U. D. Gayratov	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA ZARURIYAT: UNING AHAMIYATI.....	1435
Sh.N.G'afforov	
MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1439
Uzoqov Lutfillojon Fayzullojonovich	
DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIY NAZORATNING BOZOR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA GLOBAL AMALIYOT TAHLILI	1443
Rasulev Alisher Fayziyevich. Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORQALI DAROMADLAR O'SISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1452
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinovna	
ЭКОНОМИКА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА.....	1457
Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНА	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH.....	1475
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	



ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI

Galatov Abbos Alibekovich

ADU mustaqil tadqiqotchisi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Andijon fakulteti

H. R. Aliyev nomidagi "University of Economics and Pedagogy"

NOTM, ilmiy bo'lim xodimi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida islomiy moliya va raqamli bank ekotizimlarining integratsiya jarayoni chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Mavzuning dolzarbligi so'nggi yillarda mamlakatda raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi, moliyaviy texnologiyalar bozori ishtirokchilari sonining ortishi, ga mos moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi hamda davlat tomonidan innovatsion moliyaviy infratuzilmalarni rivojlantirishga qaratilgan siyosiy qo'llab-quvvatlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot jarayonida islomiy moliyaning asosiy nazariy tamoyillari hamda raqamli bank ekotizimining tarkibiy komponentlari o'zaro solishtiriladi, integratsiya jarayonining makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy afzalliklari yoritib beriladi.

Shuningdek, maqolada 2025-yil 27-noyabrda qabul qilingan PQ-359-son Prezident qarorining O'zbekistonda raqamli moliya infratuzilmasini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi hamda ushbu hujjatning islomiy moliya rivoji uchun bilvosita yaratayotgan imkoniyatlari — tokenlashtirilgan aktivlar, ochiq banking, moliyaviy texnologiyalarni venchur qo'llab-quvvatlash, raqamli valyutalar bo'yicha tajriba-sinovlar kabi yo'nalishlar kesimida baholanadi.

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda islomiy moliyaning raqamli bank ekotizimi bilan uyg'un rivojlanishi moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirishi, investitsion jozibadorlikni oshirishi, moliya bozorida barqarorlik va shaffoflikni mustahkamlashga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Maqola yakunida O'zbekistonda islomiy moliya va raqamli bank ekotizimlari integratsiyasini jadallashtirish bo'yicha aniq ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan hamda 2025–2030-yillar uchun ushbu yo'nalishning rivojlanish istiqbollari belgilab berilgan.

Kalit so'zlar: islomiy moliya, raqamli bank ekotizimi, moliyaviy texnologiyalar, ochiq banking, tokenlashtirish, sukuk, murabaha, raqamli to'lovlar.

Abstract. This article provides an in-depth scientific analysis of the integration process between Islamic finance and digital banking ecosystems in the context of Uzbekistan. The relevance of the topic is determined by the acceleration of digital transformation processes in recent years, the growing number of financial technology market participants, the increasing demand for Sharia-compliant financial services, and state policy support aimed at developing innovative financial infrastructure.

The study compares the fundamental theoretical principles of Islamic finance with the core components of the digital banking ecosystem and highlights the macroeconomic and microeconomic advantages of their integration.

Special attention is given to the analysis of Presidential Resolution PQ-359, adopted on November 27, 2025, and its role in shaping Uzbekistan's digital financial infrastructure. The paper evaluates the opportunities indirectly created by this resolution for Islamic finance development, particularly in the areas of tokenized assets, open banking, venture support for financial technologies, and experimental initiatives related to digital currencies.

The findings indicate that the harmonious development of Islamic finance in conjunction with the digital banking ecosystem can expand financial inclusion, enhance investment attractiveness, and strengthen stability and transparency in the financial market.

The article concludes with the development of specific policy and practical recommendations to accelerate the integration of Islamic finance and digital banking in Uzbekistan, as well as outlining the development prospects for this sector during 2025–2030.

Key words: Islamic finance, digital banking ecosystem, financial technology, open banking, tokenization, sukuk, murabaha, digital payments.



Аннотация. В данной статье проводится углублённый научный анализ процесса интеграции исламских финансов и экосистем цифрового банкинга в условиях Узбекистана. Актуальность темы обусловлена ускорением процессов цифровой трансформации в стране в последние годы, ростом числа участников рынка финансовых технологий, увеличением спроса на финансовые услуги, соответствующие нормам шариата, а также государственной политической поддержкой, направленной на развитие инновационной финансовой инфраструктуры.

В ходе исследования сопоставляются теоретические принципы исламских финансов и ключевые компоненты экосистемы цифрового банкинга, раскрываются макроэкономические и микроэкономические преимущества интеграционных процессов.

Особое внимание уделяется анализу роли постановления Президента Республики Узбекистан PQ-359, принятого 27-ноября 2025-года, в формировании цифровой финансовой инфраструктуры страны. Оцениваются возможности, которые данный нормативный акт косвенно создаёт для развития исламских финансов, в контексте таких направлений, как токенизированные активы, открытый банкинг, венчурная поддержка финансовых технологий и экспериментальные проекты в сфере цифровых валют.

Полученные результаты свидетельствуют о том, что гармоничное развитие исламских финансов в сочетании с цифровой экосистемой способствует расширению финансовой инклюзии, повышению инвестиционной привлекательности, а также укреплению стабильности и прозрачности финансового рынка.

В заключение статьи разработаны конкретные предложения по ускорению интеграции исламских финансов и цифрового банкинга в Узбекистане, а также определены перспективы развития данного направления на 2025–2030-годы.

Ключевые слова: исламские финансы, экосистема цифрового банкинга, финансовые технологии, открытый банкинг, токенизация, сукук, мурабаха, цифровые платежи.

KIRISH

So'nggi yillarda jahon moliyaviy tizimi jadal raqamli transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Moliyaviy xizmatlar texnologiyalari, ochiq banking, tokenlashtirish, raqamli to'lovlar, sun'iy intellekt hamda markaziy bank raqamli valyutalari (CBDC) moliyaviy xizmatlarning shakli, sifati va tezligini tubdan o'zgartirib, ularning samaradorligi va qulayligini sezilarli darajada oshirdi. Shu bilan birga, global iqtisodiyotda islomiy moliya segmentining o'rne mustahkamlanib, 2025-yilga kelib uning umumiy aktivlari 4,5 trln AQSH dollaridan oshdi. Barqarorlik, etik tamoyillar va real aktivlarga tayanishi sababli islomiy moliya jahon moliya bozorida ishonchli hamda pandemiya va iqtisodiy inqirozlar davrida nisbatan chidamli moliyaviy model sifatida e'tirof etilmoqda.

Bugungi kunda ushbu ikki yo'nalish — islomiy moliya va raqamli bank ekotizimlari — o'zaro yaqinlashib, moliya tizimining yangi integratsion modelini shakllantirmoqda. Mazkur integratsiya moliya bozorining umumiy samaradorligini oshirish bilan birga, moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish, xavfsizlik va shaffoflikni mustahkamlash hamda investitsion jozibadorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar asosida islomiy moliya mahsulotlari — murabaha, ijara, mushoraka, mudaraba, sukuk va boshqa islomga mos moliyaviy instrumentlar — tezkor, qulay va masshtabli raqamli xizmatlar ko'rinishida taklif etilishi mumkin.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda islomiy moliya bozoriga bo'lgan qiziqish izchil ortib bormoqda. Shu bilan birga, davlat tomonidan raqamli moliya infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan tizimli va izchil siyosat amalga oshirilmoqda. Xususan, 2025-yil 27-noyabrda qabul qilingan PQ-359-son Prezident qarori mamlakatda moliyaviy texnologiyalar, ochiq banking, tokenlashtirilgan aktivlar, raqamli to'lov infratuzilmalari, RegTech yechimlari hamda innovatsion moliyaviy ekotizimlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, u islomiy moliya rivoji uchun ham mustahkam raqamli platforma yaratish imkonini beradi. Mazkur qaror bevosita islomiy moliyani tartibga solishni nazarda tutmasa-da, unda ko'zda tutilgan raqamli transformatsiya yo'nalishlari — sukukni tokenlashtirish, islomiy moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish, raqamli to'lovlarni kengaytirish, islomga mos smart-kontraktlar ishlab chiqish — ushbu sohaning istiqbolli rivoji uchun qulay institutsional va texnologik muhitni shakllantiradi.

Shu munosabat bilan, mazkur maqolada islomiy moliya va raqamli bank ekotizimlarining integratsiyasi nazariy va amaliy jihatdan kompleks tahlil qilinadi hamda PQ-359-son qarori doirasida O'zbekistonda ushbu yo'nalishning rivojlanish istiqbollari ilmiy asosda baholanadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, mazkur integratsiya jarayoni mamlakat moliya bozorida innovatsion yechimlarni jadal joriy etish, investitsiyalar oqimini kengaytirish, halol va barqaror moliyaviy xizmatlar ulushini oshirish hamda O'zbekistonni Markaziy Osiyoda islomiy moliyaviy texnologiyalar rivojlanayotgan muhim markazlardan biriga aylantirish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Islomiy moliya va raqamli bank ekotizimlariga bag'ishlangan xalqaro hamda mahalliy ilmiy adabiyotlar ushbu ikki yo'nalish integratsiyasining dolzarbligi va strategik istiqbollari yaqqol namoyon etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy moliya tizimida islomiy moliya tamoyillarining raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi barqaror va innovatsion moliyaviy modelni shakllantirish imkonini yaratadi.

AAOIFI va IFSB tomonidan ishlab chiqilgan standartlar islomiy moliyaning fundamental tamoyillari — riboning taqiblanishi, g'arar va maysirning cheklanishi, real aktivlarga tayanish hamda foyda va zarar taqsimoti — ilmiy va institutsional jihatdan mustahkam asosga ega ekanini tasdiqlaydi. Ushbu tamoyillar islomiy moliyaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlovchi muhim mexanizmlar sifatida e'tirof etiladi.

Usmoniy, Chapra, Kahf kabi yetakchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida murabaha, mudaraba, mushoraka va sukuk kabi islomiy moliyaviy instrumentlarning iqtisodiy barqarorlikni kuchaytirishi, moliyaviy tizimning real sektor bilan bog'liqligini mustahkamlashi hamda spekulativ risklarni kamaytirishi asoslab berilgan. Mazkur ishlarda ushbu instrumentlarning inqirozlarga nisbatan chidamliligi alohida ta'kidlanadi.

Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF), Xalqaro hisob-kitoblar banki (BIS) va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar raqamli moliyaning tranzaksion xarajatlarni qisqartirish, moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish, operatsion xavflarni pasaytirish hamda shaffoflikni oshirishdagi muhim rolini ko'rsatadi. Ochiq banking, API texnologiyalari, tokenlashtirish va raqamli to'lov tizimlari global moliya tizimining yangi standartlari sifatida shakllanib bormoqda.

Islomiy fintech sohasida so'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar (MIFC, DIFC, Zetsche, Hashim) smart-kontraktlar orqali islomiy moliyaviy shartnomalarni avtomatlashtirish, tokenlashtirilgan sukuk bozori, islomga mos fintech platformalari hamda raqamli islom auditi kabi yo'nalishlar jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi. Tadqiqotchilar ushbu integratsiya moliyaviy xizmatlarning tezkorligi, shaffofligi va ommabopligini sezilarli darajada oshirishini ilmiy asosda isbotlaydi.

Mahalliy ilmiy tadqiqotlar va normativ-huquqiy hujjatlar, xususan PQ-359-son Prezident qarori raqamli moliya infratuzilmasini kengaytirish, ochiq banking mexanizmlarini joriy etish, tokenlashtirilgan qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, fintech startaplarni qo'llab-quvvatlash hamda regulativ sandbox tizimini shakllantirish orqali islomiy moliya uchun zamonaviy raqamli platformani yaratish imkoniyatlarini ochib beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, islomiy moliyaning islom tamoyillariga asoslangan barqaror modeli hamda raqamli bank ekotizimlarining innovatsion salohiyati O'zbekiston sharoitida o'zaro to'ldiruvchi va uzoq muddatli strategik ahamiyatga ega yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot islomiy moliya va raqamli bank ekotizimlari integratsiyasini kompleks baholashga qaratilgan bo'lib, unda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

1. Taqqoslovchi tahlil (Comparative Analysis).

Islomiy moliya shartnomalari — murabaha, mushoraka va ijara — raqamli moliya mexanizmlari, jumladan ochiq banking, tokenlashtirish va API texnologiyalari bilan o'zaro solishtirildi. Ushbu metod islomiy moliya instrumentlarining raqamli muhitga moslashuv darajasini aniqlash hamda ularni vizual va grafik taqqoslash uchun metodik asos yaratdi.

2. Trend tahlili (Time-Series Trend Analysis).

2020–2025-yillar davomida raqamli to'lovlar hajmi, fintech startaplar soni, global islomiy moliya bozorining o'sish sur'atlari hamda sukuk emissiyasi hajmi bo'yicha statistik ko'rsatkichlar tahlil qilindi va ularning dinamikasi grafik tasvirlar orqali ifodalandi.

3. PESTEL tahlili.

O'zbekiston bozorida islomiy moliya va raqamli bank ekotizimlari integratsiyasiga ta'sir etuvchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, huquqiy va ekologik omillar tizimli ravishda baholandi. Ushbu metod integratsiya jarayonining tashqi muhit bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash imkonini berdi.

4. Kontent-tahlil.

Islomiy moliya, fintech, ochiq banking va tokenlashtirish yo'nalishlari bo'yicha xalqaro ilmiy adabiyotlar hamda O'zbekiston Respublikasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, xususan PQ-359-son Prezident qarori asosida sifat tahlili amalga oshirildi. Mazkur yondashuv institutsional va regulativ muhitning islomiy moliya rivojiga ta'sirini aniqlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Mazkur bo'limda global islomiy moliya bozorining o'sish dinamikasi, O'zbekistonda raqamli bank infratuzilmasining rivojlanish jarayonlari, fintech ekotizimining kengayishi hamda islomiy moliyaning raqamli



texnologiyalar bilan integratsiya qilinish imkoniyatlari bosqichma-bosqich tahlil qilinadi. Grafiklar va diagrammalar keltirilgan tahlillarni vizual jihatdan mustahkamlash hamda olingan natijalarni aniq ifodalashga xizmat qiladi.

1. Global islomiy moliya bozori dinamikasi (2020–2025)

Islomiy moliya bozorining o'sish sur'atlari integratsiya jarayonining global kontekstini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. IFSB va AAOIFI tomonidan e'lon qilingan rasmiy hisobotlarga ko'ra, so'nggi besh yil davomida islomiy moliya aktivlari barqaror va izchil sur'atlarda o'sib bormoqda (1–grafik).



Grafik 1. Global islomiy moliya aktivlarining o'sishi (trln AQSH dollari).

Grafik ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, islomiy moliya bozori 2020–2025–yillar davomida yiliga o'rtacha 8–10 % atrofida barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etgan. Mazkur o'sish, asosan, sukuk emissiyasi hajmining kengayishi, islomiy banklar aktivlari ulushining oshishi hamda islomiy fintech yo'nalishining jadal rivojlanishi bilan izohlanadi.

1. Global sukuk bozorining o'sish tendensiyalari

Sukuk (islomiy obligatsiyalar) islomiy moliya bozorida muhim va istiqbolli moliyaviy instrumentlardan biri hisoblanadi. Ushbu instrument O'zbekiston sharoitida ham yuqori salohiyatga ega bo'lib, uni raqamli formatda, xususan tokenlashtirilgan sukuk ko'rinishida rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar mavjud (2-grafik).




Grafik 2. Jahon sukuk emissiyasi (mlrd AQSH dollari).



Sukuk bozori raqamli moliya bilan uyg'unlashuv jarayonida eng tez rivojlanayotgan segmentlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Mavjud prognozlarga ko'ra, tokenlashtirilgan sukuk bozorining umumiy hajmi 2030-yilgacha 200 mlrd AQSH dollariga yetishi kutilmoqda, bu esa mazkur instrumentning raqamli moliya tizimidagi strategik ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

3. O'zbekiston fintech bozorining kengayishi

PQ-359-son Prezident qarori asosida fintech ekotizimini rivojlantirish uchun yaratilgan institutsional va regulativ sharoitlar O'zbekistonning raqamli moliya sohasidagi salohiyatini sezilarli darajada oshirmoqda. Mazkur hujjat doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatni mintaqadagi eng faol va istiqbolli raqamli moliya markazlaridan biriga aylantirish uchun mustahkam asos yaratmoqda (3-grafik).



Grafik 3. Fintech kompaniyalari sonining o'sishi (2020–2025).

Grafik ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, so'nggi besh yil davomida fintech kompaniyalari soni kamida 2,5–3 baravar oshgan. Ushbu o'sish tendensiyasi islomiy fintech startaplari uchun bozor imkoniyatlarining kengayib borayotganini hamda raqamli moliya segmentida yuqori rivojlanish salohiyati mavjudligini anglatadi.

4. PQ-359-son qarorining islomiy moliya integratsiyasiga ta'siri

2025-yil 27-noyabrda qabul qilingan PQ-359-son Prezident qarori mamlakatda raqamli moliya infratuzilmasini tubdan yangilashga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Mazkur qaror quyidagi yo'nalishlar bo'yicha islomiy moliyaning raqamli bank ekotizimlari bilan integratsiyalashuvi uchun strategik ahamiyat kasb etadi:

1. Ochiq banking (API) mexanizmlarining joriy etilishi:

oislomiy moliya mahsulotlarini raqamlashtirish jarayonini soddalashtiradi;
ohalal fintech kompaniyalari uchun bank ma'lumotlariga xavfsiz va tartibga solingan ulanish imkoniyatlarini yaratadi.

2. Tokenlashtirilgan aktivlarga ruxsat berilishi:


osukuk emissiyasining raqamli formatga o'tishi uchun huquqiy va texnologik asoslarni shakllantiradi;
oinvestorlar bazasini kengaytirish va kapital bozoriga kirishni osonlashtirish imkonini beradi.

3. Venchur fondlarning tashkil etilishi:

oislomiy fintech startaplari uchun barqaror moliyalashtirish manbalarini yaratadi;
oinnovatsion loyihalarni tijoratlashtirish jarayonini jadallashtiradi.

4. CBDC bo'yicha tajriba-sinovlarning amalga oshirilishi:


omurabaha va ijara asosidagi to'lovlarni avtomatlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi;
oislom talablariga mos smart-kontraktlarni ishlab chiqish va joriy etish uchun texnologik zamin yaratadi.



1-diagramma. PQ-359-son qarorining islomiy moliyaga ta'sir mexanizmi.



O'zbekistonda islomiy moliya uchun raqamli integratsiya modeli islomiy bank moduli (murabaha, mushoraka va ijara), raqamli to'lovlar tizimi, tokenlashtirilgan sukuk platformasi, islom auditi paneli hamda ochiq API orqali fintech integratsiyasini o'z ichiga oladi (2-diagramma).



2-diagramma. Islomiy moliya va raqamli bank ekotizimlarining integratsiyasi.

Integratsiyaning O'zbekiston iqtisodiyoti uchun kutilayotgan natijalari

1. Moliyaviy inklyuzivlikning oshishi.

Islomiy moliyaga ishonch bildiruvchi aholi qatlamlarining moliya bozoriga faol jalb etilishi moliyaviy xizmatlardan foydalanish doirasini kengaytiradi.

2. Investitsiyalar hajmining ko'payishi.

Tokenlashtirilgan sukuk instrumentlari va raqamli moliyaviy platformalar xorijiy investorlar uchun yuqori darajada jozibador investitsiya muhitini shakllantiradi.

3. Barqaror moliyaviy tizimning shakllanishi.

Islomiy moliyaning asosiy tamoyillari, xususan real aktivlarga tayanish va spekulativ operatsiyalarning cheklanishi, moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

4. Fintech sektorida innovatsion jarayonlarning jadallashuvi.

Islom talablariga mos mobil ilovalar, kraudfunding mexanizmlari hamda raqamli sukuk bozorining rivojlanishi fintech sohasida yangi innovatsion yechimlarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda islomiy moliya va raqamli bank ekotizimlarining integratsiyasi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish hamda investitsion muhitni yaxshilash nuqtayi nazaridan muhim strategik ahamiyat kasb etadi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, real aktivlarga asoslangan islomiy moliya modeli raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda yangi avlod moliyaviy xizmatlarini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. PQ-359-son qarori bevosita islomiy moliyani tartibga solishni nazarda tutmasa-da, unda belgilangan ochiq banking, tokenlashtirish, fintechni qo'llab-quvvatlash hamda raqamli infratuzilmani rivojlantirish yo'nalishlari islomiy moliya ekotizimini shakllantirish uchun zarur institutsional va texnologik platformani ta'minlaydi. O'zbekiston raqamli transformatsiyaning faol bosqichiga kirib kelayotgan bir sharoitda islomiy moliyaning raqamli integratsiyasi mamlakatning mintaqaviy raqobatbardoshligini oshirishi, sukuk bozori hamda halol fintech sektorining rivojlanishiga zamin yaratishi mumkin. Shu bilan birga, islomiy moliya bo'yicha maxsus qonunchilikni jadallashtirish, islomga mos bank mahsulotlari va smart-kontraktlar uchun aniq me'yorlarni ishlab chiqish, tokenlashtirilgan sukuk uchun ochiq bozorni shakllantirish, ochiq banking asosida islomiy API xizmatlarini joriy etish, islom auditini raqamlashtirish hamda venchur fondlar, grantlar va akseleratsiya dasturlari orqali milliy halol fintech ekotizimini qo'llab-quvvatlash mazkur yo'nalishning barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-noyabrdagi "O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-359-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7864242>
2. Chapra, M. U. The Future of Economics: An Islamic Perspective. Leicester: The Islamic Foundation, 2016.
3. World Bank. Digital Financial Services Report. Washington, D.C., 2023.
4. International Monetary Fund (IMF). Fintech Note Series: Digital Transformation and Financial Stability. Washington, D.C., 2024.
5. Islamic Financial Services Board (IFSB). Islamic Financial Services Industry Stability Report. Kuala Lumpur, 2024.



6. Usmani, M. T. Introduction to Islamic Finance. Karachi: Idaratul Ma'arif, 2013.
7. Tuychiyev, A. G'ofurovich. Financing Innovative Development Projects. Multidisciplinary and Multidimensional Journal, 2023, vol. 2, no. 4.
8. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI). Shariah Standards. Manama, Bahrain, 2023.
9. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Tokenisation of Assets: Market Developments and Policy Implications. Paris, 2023.
10. Arner, D., Barberis, J., Buckley, R. The Evolution of Fintech: A New Post-Crisis Paradigm. Hong Kong: University of Hong Kong, 2021.
11. Dubai International Financial Centre (DIFC). Islamic Fintech Report. Dubai, 2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>